

YOSHLAR ONGI VA QALBIGA MILLIY G‘OYANI SINGDIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Raxmankulov Sardor Tovboyevich
Jizzax Davlat pedagogika instituti talabasi
baxmalsardor@mail.ru

Ilmiy rahbar:
Nabiyev Mansur Jamxur o‘g‘li
Jizzax Davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
mansur.nabiyev@bk.ru

Аннотасија

Mazkur maqolada milliy g‘oyaning mazmun mohiyati, milliy g‘oyani jamiyat va hususan yoshlarning dunyo qarashiga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siri, milliy g‘oyani tasirchanligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning zaruratga aylanayotganligi, milliy g‘oyani targ‘iboti texnologiyalarning tasirchanligini oshirishda axborot texnologiyalarning ahamiyati haqida fikrlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy g‘oya, jamiyat, yoshlar, innovatsion texnologiyalar, milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari, sog‘lom hayot, ta’sirchan mehanizm, jamiyatdagi islohotlar, tarbiya, ma’naviyat, ta’lim-tarbiyadagi erkinlik.

Аннотация

В данной статье представлена информация о сути национальной идеи, положительном влиянии национальной идеи на общество и мировоззрение молодежи, необходимости использования инновационных технологий для повышения эффективности национальной идеи, эффективности технологий для продвижения национальной идеи, мнения о важности технологий.

Ключевые слова: Национальная идея, общество, молодежь, инновационные технологии, технологии пропаганды национальных идей, здоровый образ жизни, действенный механизм, реформы в обществе, образование, духовность, свобода в образовании.

Annotation

This article provides information on the essence of the national idea, the positive impact of the national idea on society and the worldview of young people, the need to use innovative technologies to increase the effectiveness of the national idea, the effectiveness of technology to promote the national idea. opinions on the importance of technology.

Key words: National idea, society, youth, innovative technologies, technologies of propaganda of national ideas, healthy life, effective mechanism, reforms in society, education, spirituality, freedom in education.

Ma'lumki, tarbiya-inson shaxsi, ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimidir. Ta'lim esa axloqli, odobli shaxsga hunar o'rgatish, bilim berishdir. Inson shaxsini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan tarbiya va ta'lim bir-biri bilan uzviy bog'langan jarayondir. Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiyaning mushtarakligi haqida shunday yozadi: "Dars (ya'ni ta'lim) ila tarbiya orasida biroz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir. Chunki dars oluvchi-tarbiya oluvchi, amal qiluvchi demakdir"[1,15-16].

Inson shaxsi shakllanishida tarbiya ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Umuman aytganda, tarbiya ta'lim berish jarayonining barcha ma'rifiy majmuasini ham vazifasini ham o'z ichiga oladi. Har qanday ta'lim, tarbiya bilan uyg'unlashgandagina yetuk ma'naviyatga zamin bo'ladi.

Mamlakatimiz aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirayotgan islohotlarga dahldorlik hissini kuchaytirish, shu yo'nalishdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ta'sirchanligini yanada oshirishimiz zarurli davr talabiga aylanib bormoqda[2,280].

Tarbiya, xususan milliy tarbiya xaqida so'z borganda, bu tushunchaning mohiyati ustida alohida to'xtab o'tish lozim. Tarbiya so'zi asli arabcha bo'lib, «parvarish qilish, ta'lim berish, o'rgatish» degan ma'noni anglatadi. Tarbiyachi esa yuqoridagi maqsadlarni amalga oshiruvchi shaxsdir. Mukammal tarbiya berish ma'naviy kamolotning barcha jabhalarini rivojlantirish uchun subyektiv omil bo'lib, unga asos ham yaratadi. Shuning uchun hamma davrlarda ham tarbiyachilar yoshlarni axloqi va odobi, iymoni va vijdoni, bilimi hamda malakasini davr talablari va ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirib shakllantirishga harakat qilganlar. Shunga ko'ra, "har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra g'oyaviy tarbiyadir[3,7].

- Sog'lom g'oyaviy tarbiya – yuksak dunyoqarash va e'tiqod tarbiyasini ham anglatadi. Shu o'rinda tarbiya hamda ta'lim beruvchining shaxsiy sifati hamda o'z ishiga fidoyiligi bu masalada g'oyat muhim ekanligini unitmaslik kerak. Bu xususda G'azzoliy shunday yozadi. "Shayxning (tarbiyachining) muridini tarbiyalash kaliti - yerdan ungan ne'matning yaxshi hosil bermog'i uchun dehqon uning atrofini begona o'tlar, tikanlardan tozalagani kabi bir hol"[4,18]. Olimlarning ta'kidlashicha, informatsion yoki psixologik xurujlar ikki muhim obyektga zarba berishni maqsad qilib qo'yadi. Bu, **birinchidan**, kompyuterlar va ma'lumotlar tizimidir, chunki bugun hayotni axborot texnologiyalarisiz, Internetsiz

tasavvur qilish qiyin. **Ikkinchidan** - har birimizning individual ongimiz hamda barchamizga xos bo'lgan va biz amal qiladigan ijtimoiy xatti-harakat normalariga ta'sir alohida e'tiborga olinadi.

Ma'lumotlar asri bo'lgan XXI asrda psixologik urush va informatsion xurujlar ham ayrim geosiyosiy kuchlar qo'lida o'z gegemonligini o'tkazishning o'ziga yarasha ta'sir vositasi bo'lib bormoqda. Ular aksariyat xollarda yoshlar auditoriyasiga qaratilgan, chunki bunday urushning mohiyati raqibni oson yo'l bilan, qarshiliksiz yengishdir. Ya'ni, ma'lumotlar oqimi shunday yetkaziladiki, ma'lumotni qabul qiluvchi shaxs qarshilik ko'rsatish bema'ni ish ekanligiga ishonib qoladi. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari orqali ataylab qarama-qarshi xarakterdagi ma'lumotlar poyma-poy beriladiki, bu ham oxir-oqibat odamlarning ma'naviy idroki susayishiga olib keladi. Demak, bu xarakatlarning barchasi tinglovchi, tomoshabin yoki o'quvchining fikrini o'zgartirishga qaratilgandir.

Dunyoqarashimizga hamoxang tarzda shakllanib borayotgan amaliy hatti-harakatlarimizda yangiliklar shu qadar ko'pki, ularni oxirgi paytda **ijtimoiy innovatsiyalar** tushunchasi orqali izohlamoqdamiz.

Ijtimoiy innovatsiyalar - bu inson aqli va kuchi, ma'naviy dunyosini mutanosibligi sharoitida, uning mohiyatini saqlash, himoya qilish, takomillashtirish, samaradorligiga erishish yo'llarini ko'rsatuvchi qarashlar majmui bo'lib, u bugungi kunda har birimizning turli tashqi va ichki ma'naviy tazyiqlardan himoyalinishimizning kafolatlarini belgilaydi.

Shu ma'noda globalizatsiya sharoitida milliy ta'lim-tarbiyaning texnologik xususiyatlarini belgilashda quyidagilarni e'tibordan qochirmaslik lozim:

1. Munosib turmush kechirishga bo'lgan intilishning unga erishishga olib keluvchi aniq maqsad-muddaolar, maslaklar, fikrlash tarzi bilan uyg'unligi. Ya'ni, bugungi iqtisodiy islohotlarning aniq samarasi har bir oila, shaxs manfaatiga mutanosibligini ta'minlashning milliy g'oyaga bevosita bog'liq jihatlarini har bir fuqaro ongiga yetkazish. Aniqroq aytadigan bo'lsak, mamlakatimiz har bir fuqarosi halol mehnat qilmagan inson ma'naviy-axloqiy kamolotga erishishi mumkin emasligini, farovon hayotga erisha olmasligi g'oyasini anglab yetishiga ko'maklashish zarur. Barcha ezguliklarning boshlanishi tinimsiz izlanish, ilm o'rganish, ya'ni, mehnat ekanligi bizlarga ajdodlarimizdan qolgan meros ekanligini unutmasligimiz darkor.

2. Jamiyatdagi tub islohotlar, global o'zgarishlar har bir fuqaroni bir
□ qarashda noaniqlik, anglashilmovchilik vaziyatiga solishi muqarrar. Shunda unga milliy g'oya kerak bo'ladi, ya'ni, millatning manfaatini ifodalovchi g'oya aniq bilim, tafakkurga tayanib oqilona ish ko'rishga, tavakkal qilmaslikka, hayotda qoqilmaslikka undaydi. Chunki noaniqliklar, mavhumliklar inson qalbidagi

xatarning belgisini bildirsa, uning aksi bo‘lmish milliy manfaatga mos harakatlar xavfsizlikning kafolatlari ramzi sifatida odamni yashashga, o‘z layoqati va iste’dodini to‘la namoyon etishga zamin yaratadi.

3. Milliy g‘oya har bir fuqaroga jamiyat normalari, u ishlab chiqqan qonunlar doirasida yashashga, o‘ziga ravo ko‘rmagan narsani birovlariga ham ravo ko‘rmay yashashga qaratadi. Shu ma’noda milliy g‘oyamiz har bir inson manfaatini xalq va millat manfaati bilan shu qadar uyg‘unlashtiradiki, bu xolat huquqiy ongning shakllanganlik darajasida belgilanadi. Biz qurayotgan erkin jamiyat, huquqiy davlat har bir fuqaroning maqsad-muddaolariga mos bo‘lib, uning istiqbolini qonunan kafolatlaydi.

4. Mustaqillik va erkinlik, qonuniy kafolatlar odamlarni turli vaziyatlarda nostandart qarorlar chiqarishga, o‘z fikr-mulohazalarini erkin, mustaqil bayon etishga imkon beradiki, bu o‘z navbatida milliy mafkuraning takomiliga xizmat qilsa-da, ikkinchi tomondan, ijtimoiy fikrda ayrim evrilishlarday idrok etilishi mumkin. Shunday vaziyatlarda ham xalq ongiga milliy g‘oyaning singishi turli vaziyatlarda odamlarning bir-birlarini tushunishlariga, milliy birlikka, hamjihatlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Xurfiylik va noyob qobiliyatlar istiqbol mafkurasini yanada boyitadi, mustahkamlaydi.

5. Jamiyat miqyosida turli ziddiyatlar, inqirozlar ro‘y berayotgan bir sharoitda aholi ongiga milliy g‘oyani singdirishning eng ta’sirchan mexanizmini ishlab chiqish mushkul ish. Chunki omma, birinchi navbatda ta’lim bilan qamrab olingan aholi, yoshlar axborot oqimining barcha jabhalaridan xoxlagan paytda, xohlagancha ma’lumotlarni olishi mumkin va unga o‘z munosabatini bildirishga xaqli. Lekin biz tutadigan yo‘l, millatni millat, xalqni xalq qilish yo‘li keng miqyosli ta’sirlar sharoitida ham e’tiqodli, sobit irodali yoshlarni tarbiyalash va ular ongiga eng ezgu g‘oyalarni singdira olishdan iboratdir.

«Tarbiyachilarning o‘ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma’lumotini oshirish kabi paysalga solib bo‘lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, “Ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirishdagi asosiy muammo ham shu yerda, o‘qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo murabbiyning o‘zi ham shunday bilimga ega bo‘lishi kerak». Shu bilan birga, o‘qituvchi va murabbiylarning hayotiy talablarini qondirish, ularni rag‘batlantirish, ularni o‘z ishi, kasbidan mamnun bo‘lishini ta’minlashimiz lozim. Albatta bu masalani birdaniga yechish qiyin, lekin uni yechmasdan turib kelajak avlodning tarbiyasi to‘g‘risida gapirishning o‘zi mutloqo nomaqbuldir”[4,12]¹. Zero, biz yangi asrda va yangi bir sivilizatsiya davrida yashayapmiz. Bu sivilizatsiyada mehnat qilib, o‘zining ustida tinmay ishlaydigan, uzluksiz ta’lim oladigan, doimiy ravishda o‘z bilim

¹ Barkamol avlod orzusi. T. , «Sharq» nashriyot matbaa konserni Bosh tahririyati. T. , 1999 yil, 12-bet

ehtiyojlarini qondirib, olgan bilimlarini oilasi, xalqi va davlati rivojlanishiga sarf qila oladigan shaxsgina munosib o‘rinni egallashi mumkin. Shuning uchun ham Ta’lim to‘g‘risidagi qonunimizda uzluksiz ta’limga katta ahamiyat berilgan. Chunki, jamiyatimiz o‘z oldiga qo‘ygan oliy maqsad – kelajagi buyuk O‘zbekistonni, ozod, obod Vatanni yaratish va umuman, islohotlarning taqdiri oxir-oqibatda bugun shakllanayotgan avlodning dunyoqarashiga, zamonaviy ilm-fan va kasblarni egallashiga, amaliy tashkilotchiligiga bevosita bog‘liq.

Bizning davrimizda muayyan e‘tiqod, aniq umid va ezgu niyatlarga ega, o‘z mavqei, huquqini anglagan bilimdon, o‘z vatani burchiga sadoqatli fuqarosiz ijtimoiy taraqqiyot mumkin emas. XXI asr yoshlari turli-tuman mafkuralar tajovuzi kuchayib borayotgan sharoitda yashamoqdalar. Bunday vaziyatda ijtimoiy gumanitar fanlar yoshlarimizda har qanday yot mafkuraviy ta’sirga qarshi muayyan munosabatni hamma joyda har doim namoyon bo‘lishini ta’minlashga qodir bo‘lmog‘i kerak. Ushbu o‘ta muhim ijtimoiy-pedagogik muammo yechilmas ekan, kelajakda yoshlarimizning yot mafkuralar ta’siriga qarshi javob qaytara olmasliklari tabiiydir. Bunga esa yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud ahloq. Toshkent, «O‘zbekiston», 1992 yil, 15-16-b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2021.-280-b.
3. Milliy istiqlol g‘oyasini xalqimiz ongiga singdirish, omillari va vositalari. T., «Ijod dunyosi» nashriyot uyi. 2002 yil, 7-b.
4. Abu Xamid Muhammad al-G‘azzoliy. Oxiratnoma. Buxoro, 1992 yil 18-bet.
5. Barkamol avlod orzusi. T., «Sharq». T., 1999 yil, 12-b.